



## ZIYORAT TURIZMI ASOSIDA MA'NAViy-AXLOQiy FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH MECHANIZMLARI

*Eshchanova X.X.*

*Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** turizm, turist, ziyorat turizmi, ziyorat odobi, turizm infratuzilmasi, turizm zonalari, madaniy meros obyektlari, oilaviy sayohat ta'tili.

**Ключевые слова:** туризм, турист, паломнический туризм, паломнический этикет, туристическая инфраструктура, туристические зоны, объекты культурного наследия, семейный отдых.

**Key words:** tourism, tourist, pilgrimage tourism, pilgrimage etiquette, tourism infrastructure, tourism zones, cultural heritage objects, family travel vacation.

Zamonaviy integratsiyalashgan dunyoda ziyorat qadimiy diniy an'ana sifatida barqaror rivojlanayotgan madaniy hodisaga aylandi. Bu esa o'z navbatida, ziyorat va ziyorat bilan bog'liq marosimlarni xalq madaniyatining o'ziga xos jihati sifatida o'rganish hamda targ'ib etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, "Yangi O'zbekiston" da ziyorat turizmi O'zbekiston iqtisodiyotida strategik yo'nalishlardan biri sifatida baholanib, sohani rivojlantirishga davlat miqyosida jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonlar uchun xizmat qilishi zaruriyati ma'naviy-ma'rifiy islohotlar oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Buning uchun yoshlar tarbiyasini haqiqiy vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibtli bo'lish, xalq qahramonlariga sodiqlik tamoyillari asosida olib borish ko'zda tutildi. Shuning uchun ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim sohasini yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoldi. Ziyorat turizmi yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy fazillarlarini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Ziyorat madaniy hodisa sifatida faqat XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy tadqiqotlar mavzusiga aylanadi. Ushbu davrdan oldin asarlarning aksariyati



o‘tmish va hozirgi ziyoratchilarning sayohatlarining empirik kuzatuvlari va dalillari bilan ifodalanadi yoki turli ziyoratgohlarning tavsiflariga bog‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5328-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[1], 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasi ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[2], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-son qarorlari[3] mazkur vazifani amalga oshirish uchun turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Turizm nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirishda, shu bilan birgalikda o‘quvchi shaxsining ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaydiki: “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta‘siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”. Bu ezgu vazifalarni ro‘yobga chiqarishda turizmning o‘rni va ahamiyati juda muxim hisoblanadi. Bugungi kunga kelib turizmning turli yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstrimal turizm, shuningdek, ziyorat turizmi singari yo‘nalishlar[7].

Turizm o‘zining boy mazmuniga ega bo‘lib, shaxsda o‘z-o‘ziga xizmat qilish, turli to‘siqlar va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, bilim, ko‘nikma, qobiliyatlarni sinash umumiy qilib aytganda, o‘z-o‘zini tarbiyalashning ajoyib vositasidir. Ayniqsa ziyorat turizmi vositasida yoshlar ongida vatanga mehruhabbat, ota-bobolar ruhi-pokiga e‘zoz va hurmat odobining vujudga kelishiga ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Jumladan, yoshlarni iymone‘tiqod, poklik, sabr-toqat, halollik, to‘g‘ri so‘zlilik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda qadamjo hamda ziyoratgohlardagi avliyolar shaxsi muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, O‘zbekiston hududida ziyoratgohlar masalasini o‘rganishda ziyoratgoh nomi bilan bog‘liq shaxsni personifikasiya (avliyo, pir, said, xo‘ja) maqomi va darajasini tadqiq qilish ham muhim sanaladi[4].

Shu o‘rinda ziyorat atamasini tahlil qiladigan bo‘lsak, manbaalarda turlicha ifodalangan.

O‘zbek xalqi turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan “Ziyorat” – atamasi arabcha so‘z bo‘lib, “biror yerga yoki shaxs huzuriga borish”

ma'nosini bildiradi. Ziyorat – islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va ziyoratgohlarga borib, muayyan rasm-rusmlarni bajarish demakdir[5].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ziyorat-tashrif, tabarruk joylarga safar qilish, muqaddas joylar, mozor va qabristonlarga borish, ziyoratgoh- ziyorat qilinadigan joy, tabarruk qadamjo, ziyoratxona-ziyoratgohning ziyoratchi-muqaddas joylarga ziyoratga brogan yoki boruvchi kishi sifatida talqin qilingan[6].

Bugungi kunda ziyoratga borish o‘zbek xalqining kundalik turmush-tarzi va mentalitetining ajralmas qismi bo‘lib, asrlar davomida o‘ziga xos ziyorat odobi shakllanib ulgurgan. Ziyorat odobi – muqaddas qadamjo, avliyolar, pirumurshid, shayx va islom ulamolarining qabrlari hamda maqbaralariga tashrif buyurilganda ziyorat qilish tartibqoidalaridan iborat.

“Ziyoratgoh” atamasi yakka yoki jamoaviy tarzda boriluvchi, imon keltirganlar ilohiy kuchlarga hurmat bajo keltirish orqali o‘zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun ilohiy kuchlardan ko‘mak so‘rab, murojaat qilinadigan joy ma’nosini anglatadi. Islom dinining hanafiylik mahzabida ziyorat qilish savobli ish, deb qaraladi[5]. Agar ziyorat uchun ko‘p mehnat va xarajat sarflansa, shunchalik savobi katta bo‘ladi, deb tushunilgan. Masalan, ziyorat uchun mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tish jismoniy va ma’naviy jasorat, kuchli iroda hamda o‘ziga xos insoniy fazilatlarni talab etadi.

Ziyoratgohlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy, ruhiy va ijtimoiy-siyosiy tarbiyasida quyidagi funksiyalarni bajaradi.

1. Insonning aralashuvisiz tabiiy sharoitda vujudga kelgan ziyoratgohlar (chashma-buloqlar, shifobaxsh tuproqlar) insonlarni tabiatni sevish, go‘zalliklaridan bahra olish va estetik his-tuyg‘uni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Ziyoratgohlar (maqbaralar, tabiiy ob‘yektlar, me’moriy obidalar, tarixiy manzillar) turli hududdan ziyorat qilish uchun kelgan insonlar uchrashadigan va o‘zaro madaniy aloqalar almashadigan nuqtadir.

3. “Ziyoratingiz qabul bo‘lsin”, deyilganda insonlarning ezgu ishlarini rag‘batlantirish, ularni qo‘llab-quvatlash va hayotdagi orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishini istash ifodalangan.

4. Ziyoratgohlar yosh avlod ongida savobli ishlar qilib, dunyodan o‘tgan buyuk shaxslarning so‘ngi manzili obod va aziz joyga aylanadi, degan tushunchaning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

5. Ziyoratgohlar kishilarda boshqalarni e‘zozlash tuyg‘usini tarbiyalaydi.

6. Bir xalqning ziyoratgohiga sayyoh bo‘lib kelgan boshqa xalqlar uchun ibrat va tajriba almashish vazifasini bajaradi.



7. Ziyoratgohlar ajdodlardan meros bo‘lib kelgan urf-odat, bayram, sayl va hordiq chiqarish kabi an‘analarni o‘zida namoyon qiladi.

8. Ziyoratgohlar qishloq va shaharlarning obod hamda fayzli bo‘lishi va nufuzini oshirishga hissa qo‘shadi.

9. Ziyoratgohlar me‘morlar, dizayner va san‘atkorlarga ijodiy ilhom beradi hamda yangi ijod namunalarning yaratilishiga turtki bo‘ladi.

10. Ziyoratgohlar mahalliy va xalqaro sayyohlik tizimi uchun harakat dasturi ishlab chiqish hamda amaliy ishlar qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

11. Ziyoratgohlar sayyohlarni tarixiy, ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy bilimlarining oshirishga xizmat qiladi.

Ziyoratgohlar ochiq muzey vazifasini ham bajaradi. Darhaqiqat, ziyoratgohlar ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya maskanlaridan biri hisoblanadi. Zero, vatanga muhabbat, vatanparvarlik va mardlik hissini shakllantirishda vatanini dushmanlardan himoya qilish uchun jonini bergan, sadoqat va mardlik tuyg‘ularining yorqin timsoli sifatida sadoqat va mardlik tuyg‘ularining yorqin timsoli sifatida Pahlovon Mahmud, Shayx Najmiddin Kubro, Sohibqiron Amir Temur timsollarida ko‘rish mumkin.

Ziyoratgohlarning yana bir muhim jihati, turli hunarlar pirlar bilan bog‘liq deb qaralgan bo‘lib, muayyan hunar egalari ziyorat qilishlari uchun mo‘ljallangan.

Masalan, Nuh payg‘ambar kema yasagan, yani “qo‘liga birinchi bo‘lib bolta ushlagan” shuning uchun duradgorlar homiysi, Dovud payg‘ambar – temirchilar homiysi sifatida talqin etiladi. Kasb-hunar homiylari avliyo sifatida ulug‘langan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘z asarlarida avliyo va nabiy, yani payg‘ambarlardan so‘ng valiy, “komil insonlar” deb talqin qilinib, kamtarlik, muloyimlik, saxiylik va sabrlilik singari xislatlariga to‘xtaladi.

Ziyorat turizmi insonda bir qancha juda qimmatli fazilatlarini shakllantiradi. Insonning dunyoqarashini kengaytirish, ma‘naviy hayotini boyitish, ijtimoiylashtirish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham muhim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ziyorat turizmi barkamol shaxsni tarbiyalashda samarali vositadir. Muqaddas qadamjolarini piyoda yurib ziyorat qilish yoshlarimizda qiyinchiliklarni engish qobiliyatini, ongli intizom, qat‘iyat va mas‘uliyatni rivojlantiradi. Safar davomida o‘rnatilgan aloqalar sayohat ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Turistik kognitiv faoliyat, odamning sayohatga bo‘lgan ehtiyoji:

- insonni atrofdagi dunyoni bilish va rivojlantirishga;
- yangi munosabatlar tizimlarini qurishga;



- yangi hissiy va estetik taassurotlarni olishga;
- ijtimoiy tajribaning qiziqarli shakllarini o'zlashtirishga imkon beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o'tmishda yo'qotilgan hamda oyoq osti qilingan madaniyatning, xususan ma'naviyatning qayta tiklanishiga imkoniyat yaratildi. Shunday ekan, bu yaratib berilayotgan imkoniyatdan foydalanib, tarixning turli davrlarida turli sabablar bilan yo'qolib ketgan tarixiy meros, yodgorlik va obidalarni ilmiy nuqtai nazardan arxeologik dalillar asosida ilmiy tahlil qilib, kelgusida uning millat ma'naviyati va yoshlar madaniyatiga ko'rsatadigan ta'sirini haqqoniy yoritib berish lozim. Ziyoratgohlar, olimlar, ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish hamda ziyorat turizmi salohiyatini har tomonlama o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirishga qaratilgan amaliy ishlarni tashkil qilish dolzarb masaladir.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son farmoni. //www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni. //www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 100-son qarori. //www.lex.uz
4. Хлопкова О.В. Современные проблемы исследования религиозности // Современные исследования социальных проблем.-2012. №9(17).-С.1-7.
5. Boborahimov Sh., Bozarov N. Surxon vohasi ziyorat turizmi salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. /T.:Lesson press 2023-yil, 84 bet.
6. Ислом энциклопедияси / З.Хусниддинов тахрири остида. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2004.-Б. 20
7. Eshchanova X. Yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ziyorat turizmining ahamiyati. "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2-qism. 365-bet.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmining hozirgi holati, uni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarning tahlili, shuningdek ziyorat turizmi yoshlarimizni ma'naviy-axloqiy fazilarlarini shakllantirishda zamonaviy yondashuv sifatida batafsil yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье подробно описано современное состояние паломнического туризма в Республике Узбекистан, меры, направленные на его развитие и анализ нормативно-правовых документов, связанных с данной сферой, а также паломнический туризм как современный подход к формированию нравственности. и моральные качества нашей молодежи.

#### SUMMARY

The article describes in detail the current state of pilgrimage tourism in the Republic of Uzbekistan, measures aimed at its development and analysis of regulatory documents related to this area, as well as pilgrimage tourism as a modern approach to the formation of morality. and moral qualities of our youth.